

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



2024-yil



OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI

SOHA KORXONALARINI LOYIHALASH ASOSLARI

SILLABUSI

(SKLA1806)

- | | |
|---------------------------|---|
| Bilim sohasi: | 700000 - Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari |
| Ta'lim sohasi: | 720000 - Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60720100 - Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) |

© Ushbu hujjat Guliston davlat universiteti mulki hisoblanadi va uni oluvchilar uchun maxfiy bo‘lib, to‘liq yoki qisman nusxa ko‘chirilishi, tarqatilishi yoki ko‘paytirilmasligi yoki uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Ushbu materialni ko‘paytirish, tarqatish, nusxalash, oshkor qilish, o‘zgartirish, tarqatish yoki nashr etishning har qanday shakli qat’iyan man etiladi.

Kun	
Avgust 2024	Ushbu sillabus Guliston davlat universiteti Kengashining 2024-yil ” <u>29</u> “ <u>08</u> dagi <u>1</u> - sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
	Tuzuvchi: Nurmuxamedov A.A. - GulDU, “Oziq-ovqat texnologiyalari” kafedrasи o‘qituvchisi G‘anijonov D.I. - GulDU, “Oziq-ovqat texnologiyalari” kafedrasи o‘qituvchisi
	Taqribchilar: K.K.Sattarov - GulDU, “Oziq-ovqat texnologiyalari” professori t.f.d., DSc. Ruziboyev A.T. – TKTI, “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasи professori, t.f.n.

Mundarija

SKLA 1806: Soha korxonalarini loyihalash asoslari.....
1. Fan tavsifi
2. Fanning dastlabki rekvizitlari.....
3. Fanning maqsadi.....
4. Ta'lim berish natijaları.....
5. Ta'lim berish usullari.....
6. Soatlar/Kreditlar.....
7. Fanning tarkibiy tuzilishi.....
8. Talabalar bilimini baholash.....
9. Adabiyotlar.....
10. Akademik talablar.....

SOHA KORXONALARINI LOYIHALASH ASOSLARI (SKLA 1806)

1.Fan tavsifi

“Bu fan oziq-ovqat yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarning ishlab chiqarish korxonasining umumiy tuzilishi, korxonani yurg‘izish uchun kerakli bo‘limlar, ular maydoni va jihozlanishi, ishlataladigan energiya turi va miqdori haqida to‘la ma’lumotni o‘z ichiga oladi.

2.Fanning dastlabki rekvizitlari

Bu talabalarning fundamental hamda ixtisoslik fanlaridan olgan nazariy bilimlari asosida ma’lum bir unumdarlikda ishlaydigan oziq-ovqat korxonalarini loyihalash va bunga doir texnik-texnologik masalalarni echish hisoblanadi. Loyihada talabalar ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviy tashkil etishni, texnologik uskunalarni qo‘llashni eng maqbul variantini taklif etishni va ajratilgan joyda qurilma va uskunalarni joylashtirishni ko‘rsata bilishlari kerak. Shuningdek mehnatni ilmiy tashkil etish prinsiplarini loyihada ishlata bilishlari kerak.

3.Fanning maqsadi

Talabalarda yog‘-moy, don, non, makaron va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarini loyihalash tartibining asosiy holati va qoidalari, hududga, bino va inshootlarga bo‘lgan talablari, texnika xavfsizlik qoidalarni hisobga olgan holda asosiy texnologik jihozlari bino qavatlariga joylashtirish talablari, loyihalashda ishlab chiqarish estetikasi va atrof muhitni himoya qilish bo‘yicha bilimlarni o‘rganishdan iborat.

4.Ta’lim berish natijalari

Ushbu fanni muvaffaqiyatl tugatib, talabalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:

-moyli urug‘lar va donlar va unlarni saqlash, o‘simlik moylari ishlab chiqarish, yog‘larni qayta ishlash va don va un ishlab chiqarish, non, makaron va qandolat korxonalarini loyihalashda keng foydalilanadigan yangi jihozlarning turlarini, texnik tavsifini, ularing ishlash prinsipini, shuningdek loyihalashda kerakli texnik hujjatlarni tayyorlash jarayonini, ishlab chiqarish binolarining konstruksiyalarini bunda qo‘yiladigan talablarni to‘liq qondirish to‘g‘risidagi *tasavvurga ega bo‘lishi*;

-moyli urug‘larni saqlash, o‘simlik moylari ishlab chiqarish va yog‘larni qayta ishlash, don va un ishlab chiqarish, non, makaron va qandolat korxonalarini loyihalashda fan va texnikaning so‘ngi yutuqlaridan foydalanish, yangi jihoz va uskunalarni qo‘llash, ishlab chiqarish binolarida ish o‘rinlarini belgilashda mehnatni ilmiy tashkil etish tavsiyalarini tadbiq qilish, hamda samarali texnologiyalarni qo‘llay olish muammolarini echish, loyiha qarorlarini amalga oshirish uchun zaruriy hisoblashlarni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

-talaba texnologik loyihalash ishlarini avtomatlashtirish, bosh reja, qurilish joyining shamol yo‘nalishi, loyihalash bosqichlari, loyihalash topshirig‘i, texnik loyiha, ishchi loyiha uskunalarni joylashtirish, soha me‘yoriy hujjatlari, uskunalarni ishlatishda xavfsizlik qoidalarni, texnologik va yordamchi uskunalar hisobi, texnik xujjatlarni tuzish, uskunalarni tayyorlashda material tanlash prinsiplari, yog‘va yog‘ mahsulotlarini qayta ishlashda oziq-ovqat mashinasozligining rivojlanish tendensiyalari, loyihalash va loyihani qo‘llay bilish *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak*;

5.Ta’lim berish usullari

- dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini tanqid, publisistik va boshqa janrlar (masalan, esse)da yozma bayon qilish;
- ma‘ruzalar tayyorlash;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va jamoaviy o‘quv loyihasi tuzish;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbalar bilan ishlash;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
- multimediali taqdimotlar yaratish.

6.Soatlar/kreditlar

Ta'lif turi	Ma'ruza soat	Amaliy mashg'ulot soat	Mustaqil ta'lif soat	Jami soat/kredit
8-semestr uchun				
Kunduzgi	30	60	90	180/6
Yillik jami	30	60	90	180/6

7. Fanning tarkibiy tuzilishi

Nº	Mavzular	soat	Ma'ruza mashg'ulotida ko'rildigan masalalar	soat	Amaliy mashg'ulot mavzulari	soat	Mustaqil ta'lif va mustaqil ish mavzulari	soat
1	1-Mavzu. Fanga kirish. Yog'-moy, don mahsulotlari sanoatining rivojlanish bosqichlari	12	Fanning predmet va vazifalari. Loyihasingning asosiy maqsadi nazariy bilimlari mustahkamlash va chuqurlashtirish; mustaqil, ijodiy muhandislik, ilmiy-tadqiqot ishlarnini bajarish ko'nikmalarini takomillashtirishdir.	2	Ishlab chiqarish korxonalarini loyihalashning umumiy tushunchalari	4	Texnologik jarayonlari mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish	6
2	2-Mavzu. Loyihalashda SPX, ALS ni qo'llagan holda zamonaviy loyihalashishlarining roli	12	Fan va texnikaning yangi yutuqlari asosida korxonani loyihalash, yuqori mehnat sharoitlarda kelajagi buyuk texnologiyalarini qo'llash, xom ashyo va tabiat resurslarini (yer, suv va b) tejash, texnika xavfsizligi, yong'in va portlovchilarning xavfsizligi normalariga amal qilish.	2	Loyihalash bosqichlari va smeta hujjatlarini yuritish	4	Korxonani qayta jihozlashni asoslari va asosiy texnologik yechimlar	6
3	3-Mavzu. Yog'-moy va don mahsulotlari korxonalarining sanoat binolari va ularning konstruktiv elementlari	12	Sanoat binolarining klassifikasiyasini Sanoat binolariga qo'yildigan talablar Binolarining asosiy turlari: ishlab chiqarish korxonasi, yordamchi tsekslar sanitarni texnika binolari, yordamchi binolar.	2	Bino va inshootlar tushunchasi va o'lchamlari. Bir qavatli va ko'p qavatli sanoat binolari chizmasi	4	Texnologik sxemalari bayoni va texnokimyoviy nazoratni tashkil qilish usullari	6
4	4-Mavzu. Uskunalarini bino qavatlariga joylashtirish	12	Korxonaning kategoriyasini hisobga olgan holda zinapoyalari rasionall joylashtirish. Uskunalarini joylashtirish. Joylashtirishdagi umumiy talablar uskunalarining montaji va demontaji, transporterlarning eng qisqa uzunligi, o'z- o'zidan oquvchi trubalarini ko'p ishlatalishi va boshqalar.	2	Texnik hujjatlarni ishlab chiqish va loyihalash bosqichlarini o'rganish	4	Loyihaning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari	6
5	5-Mavzu. Loyihalash bosqichlari. Korxonaning quvvatini asoslash. Korxonani rekonstruksiyalas	12	Korxona qurilishini iqtisodiy jihatdan asoslash. Loyihalashtirishga va qurishga buyurtmachilar. Loyihalashtirishga topshiriqlar. Loyihalashtirish muassasalari. Korxonaning ishlab chiqarish quvvatini asoslash prinsiplari. Ishlab chiqarish quvvatini asoslashga ta'sir qiluvchi omillar.	2	Loyiha ishlarni bajarishda AutoCad dasturiy paketi imkoniyatlarini o'rganish	4	Moyli urug'larni qayta ishslash korxonasining bosh plani bilan tanishish	6
6	6-Mavzu. Suv, bug' va kanalizasiyani loyihalash	12	Sanoat, xo'jalik va maishiy ehtiyojlarga sarflanadigan suv va bug' miqdorini hisoblash. Ishlab chiqarish, xo'jalik-maishiy va yog'ingarchilik suvlari miqdorini aniqlash. Sharqli toza va ifloslangan ishlab chiqarish oqava suvlari	2	Qurilish maydonini tanlash. Qurilish maydoniga talablar. Korxonaning bosh rejasini loyihalashni o'rganish	4	Yog'larni qayta ishslash korxonasi tayyorlov texnologik jihozlari joylashuvini o'rganish	6

7	7-Mavzu. Korxona energiya ta'minotini loyihalash	12	Texnologik, xo'jalik va maishiy ehtiyojlar uchun elektr energiyasi sarsini hisoblash. Zaruriy transformatorlar hisobini belgilash va o'rnatish me'yordi. Uskunalar dvigatellariga mos kabel simlar yuklara yuza kesimini aniqlash	2	Texnologik jarayonlarni mexanizasiyalash va avtomatlashtirishni o'rganish	4	Forpress sexidagi texnologik jihozlari joylashuvini o'rganish	6
8	8-Mavzu. Qurilish smetasi va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi	12	Rejadagi kalkulyatsiyani xarajatlari: xom ashyo uchun, asosiy va qo'shimcha materiallar uchun, ish haqi uchun, tsex xarajatlari, korxonaning umumiy xarajatlari, savdo-sotiqqa oid xarajatlar.	2	Tanlangan texnologik sxemaga mos texnologik uskunalarni tanlash va hisoblash	4	AutoCad dasturiy paketida donni qayta ishlash korxonalaridagi texnologik jarayonlari loyihalash	6
9	9-Mavzu. O'rnatiladigan uskunani tanlash va sonini hisoblash. Seriyali va seriyasiz uskunalar	12	Yog'-moy, don mahsulotlari korxonalarining texnologik sxemalarini tanlash. Texnologik sxemani tuzushni aniqlaydigan umumiy tamoyillar. Texnologik operasiyalari ketma-ketligi. Funksional(prosessual) sxema. Texnologik jarayonlari tanlashni asoslash.	2	Ishlab chiqarish binolari qavatining balandligini tanlash. Korxona binosi qavatlariga jihozlarni joylashtirish va ishlab chiqarish binosining asosiy o'lchamlarini o'rganish	4	Oziq-ovqat korxonalarini loyihalashda topshiriqning qismlari	6
10	10-Mavzu. Texnologik va transport uskunalarni tanlash	14	Texnologik va transport uskunalarni tanlash. Uskunalar soni hisobi va uning (texnologik) tavsifi. Uskunaning umumiy jadvali. Tanlangan uskunalarni ishlab chiqarish binolari qavatlariga joylanishi nuqtai nazariga ko'ra analizi	4	Bino konstruksiyasining asosiy parametrлari va elementlarini hisoblash	4	Oziq-ovqat korxonalarini loyihalashda atrof-muhitni ifloslantirishning oldini olish	6
11	11-Mavzu. Korxonaning bosh plani va unda asosiy va yordamchi binolarni joylashishi	14	Loyihalanayotgan korxonani bosh planini tuzish. Binolar va qurilmalarni shamolning yo'nalishiga asoslanib joylashtirish. Korxonalarining sanitari-himoya zonasasi. Binolarni temir yo'lga nisbatan joylashishi. Qurilishning qizil chizig'i.	4	Yog'-moy korxonalarini tayyorlov bo'limi va forpress tsexi uskunalarni hisoblash	4	Oziq-ovqat korxonalarini ishini loyihalasini qismlari	6
12	12-Mavzu. Uskunalarini joylashtirish,turli mashina va uskunalar hamda ishechi binolarni joylashtirish qoidalari	14	Uskunalarini joylashtirishdagi texnika xavfsizligi bo'yicha asosiy talablar. Asosiy sexlar, bunkerlar va sig'imlararning o'lchamlarini aniqlash. Korxonalarini yuqori unumdonorli komplekt uskunalarini qo'llagan holda loyihalashning o'ziga xosligi.	4	Yog'-moy korxonalarini ekstraksiya va rafinatsiya tsexlarini uskunalarini hisoblash	4	Oziq-ovqat korxonalarinida xom ashyoni qabul qilish va jo'natish uskunalari	6
13		10			Un va yorma zavodlari binolari ning qurilish konstruksiyalarini hisoblash	4	Uskunalarini joylashtirish tamoyillari	6
14		10			Tegrimonni un tortish bo'limining jihozlarini tanlash va hisoblash	4	Ishlab chiqarish-veterinariya nazoratini tashkil etish sxemasini tuzish	6
15		10			Non, makaron va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish tsexlarini loyihalashni o'rganish	4	Texnologik qurilmalarni joylashtirish me'yordi	6
Jami		180	Jami	30	Jami	60	Jami	90

8.Talabalar bilimini baholash

Nº	Baholash turi	Topshiriqlar turi	Topshiriq soni	Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball	Jami
1	Joriy baholash	Mustaqil ish topshiriqlari	2	5	10
		Amaliy mashg'ulotlardagi ishtiroki	15	2	30
2	Oraliq baholash	Mustaqil ish topshiriqlari	2	5	10
		Yozma og'zaki yoki test	2	5	10
3	Yakuniy baholash	Yozma, og'zaki, ijodiy ish, test va h.k.	1	40	40
4	Jami		23		100

Izoh: Mustaqil ish topshiriqlarini baholash GulDU Kengashining 11-sonli bayoni bilan tasdilangan “Talabalar mustaqil ta'limini tashkil qilish tartibi” asosida baholanadi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvosiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$UB=JN+ON+YaN$$

buyerda: JN – joriy nazorat; ON–oraliq nazorat; YaN – yakuniynazorat.

9.ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyyotlar

- 1.K.K Sattarov,S.K.Kuzibekov, A.O.Uzaydullayev, G.Q.Tuxtamishova. “Oziq-ovqat sanoati xom ashyosi” Darslik.- Guliston, Guldu “Soliq-Print” 2023, -274 b.
- 2.Y.Qodirov, D. Ravshanov, A. Ruziboev “O'simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi”. Darslik. “Cho'lpon ”, Toshkent, 2014, - 320 b.
- 3.Y.Qodirov, M. Raximov. “Yog'larni qayta ishlash texnologiyasi”Darslik. “Fan va texnologiyalar”. Toshkent . Iqtisod-moliya,.-2013, 300 b.
- 4.Y.Qodirov, A. Ruziboev “Yog'lari qayta ishlash texnologiyasi” Darslik. “Fan va texnologiyalar”. Toshkent - 2014, 320 b.
- 5.Vasiyev.M.G. va boshqalar. Oziq-ovqat texnologiyalari asoslari. Darslik. T. Voris-nashriyot. 2012. 400 b.
- 6.Sattarov K.K. Non, makaron va qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarini uskunalar» fani bo'yicha o'quv uslubiy majmua. Guliston. 2023. 250.b.

Qo'shimcha adabiyyotlar

- 1.Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз”, Тошкент. “Узбекистан”, 2017, 488 б.
- 2.Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрг тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови 48 б, Т. “Ўзбекистан”, 2017 йил
- 3.Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистан давлатини биргаликда барпо этамиз. 56 б. Т. “Ўзбекистан”, 2016 йил
- 4.O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati: qisqacha tarixi; rivojlanish istiqbollari; muammolari”, Darslik, prof. Turobjonov S.M. tahriri ostida, T.: “Fan va texnologiya”, 2014 y, 460 b.

Axborot manbaalari

- 1.www.ziyonet
- 2.<http://www.academy.uz/ru/>
- 3.<https://unilibrary.uz>
- 4.<https://hemis.guldu.uz/>
- 5.<http://portal.guldu.uz/>

10. Akademik talablar

O'qituvchi va talaba o'rtaсидаги o'zaro munosabat samimiyl va beg'araz bo'lishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o'quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi.